



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

SHARQ PEDAGOGIKASI RIVOJIDA KONFUTSIYNING INSONPARVARLIK KONSEPSIYASI

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti, professor, (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Konfutsiyning insonparvarlik (Ren) va donolik (Zhi) konsepsiyalarining pedagogik mohiyati «Lun Yuy» asari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda insonparvarlikning shaxs kamolotida tutgan oʻrni, uning donolik bilan oʻzaro aloqadorligi hamda axloqiy tarbiya jarayonidagi shartlari ochib beriladi. Maqolada Konfutsiyning differensial yondashuvini zamonaviy taʼlim tamoyillari bilan qiyoslangan hamda uning yoshlar maʼnaviyatini shakllantirishdagi metodologik ahamiyati asoslangan.

Kalit soʻzlar: Konfutsiy, Sharq pedagogikasi, insonparvarlik (Ren), donolik (Zhi), «Lun Yuy», axloqiy tarbiya, differensial yondashuv, olijanob inson (Junzi), empatiya, pedagogik etika.

КОНЦЕПЦИЯ ГУМАНИЗМА КОНФУЦИЯ В РАЗВИТИИ ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИКИ

Избуллаева Гульчехра Валерьевна

Бухарский государственный педагогический институт, профессор, (DSc)

Аннотация

В данной статье анализируется педагогическая сущность концепций гуманности (Жэнь) и мудрости (Чжи) Конфуция на основе труда «Лунь Юй». Исследование раскрывает роль человеколюбия в развитии личности, его взаимосвязь с мудростью и условия нравственного воспитания. В статье проводится сравнительный анализ дифференцированного подхода Конфуция с современными принципами образования и обосновывается его методологическая значимость в формировании духовности молодого поколения.

Ключевые слова: Конфуций, восточная педагогика, гуманность (Жэнь), мудрость (Чжи), «Лунь Юй», нравственное воспитание, дифференцированный подход, благородный муж (Цзюнь-цзы), эмпатия, педагогическая этика.

CONFUCIUS' HUMANISTIC CONCEPT IN THE DEVELOPMENT OF EASTERN PEDAGOGY

Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna

Bukhara State Pedagogical Institute, Professor, (DSc)

Abstract

This article analyzes the pedagogical essence of Confucius's concepts of benevolence (Ren) and wisdom (Zhi) based on the «Analects» (Lun Yu). The study reveals the role of humanism in personal development, its interaction with wisdom, and the specific conditions for moral upbringing. The article compares Confucius's differentiated approach with modern educational principles and establishes its methodological significance in shaping the spirituality of the younger generation.

Keywords: Confucius, Eastern pedagogy, benevolence (Ren), wisdom (Zhi), «The Analects», moral education, differentiated instruction, the superior man (Junzi), empathy, pedagogical ethics.

Hozirgi globallashuv davrida texnologik taraqqiyot tezlashgan bo'lsa-da, insoniy qadriyatlar, mehr-oqibat va axloq masalalari dolzarb sanaladi. Konfutsiyning «*Ren*» (insonparvarlik) g'oyasi ta'limning asosiy maqsadi faqat bilim berish emas, balki «*qalbni tarbiyalash*» ekanligini uqtiradi. Bu esa yosh avlodni ma'naviy bo'shliqdan himoya qilishda dolzarb metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq pedagogikasi, xususan Konfutsiy ta'limoti, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ayri ko'rmaydi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlarda ham asosiy urg'u «Uchinchi Renessans» poydevorini qurishga qaratilgan. Konfutsiyning «Olijanob inson» konsepsiyasi zamonaviy komil inson g'oyasi bilan hamohang bo'lib, o'quvchi shaxsini ijtimoiy mas'uliyatli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Konfutsiy pedagogikasining o'zagi – oiladagi tarbiya va kattalarga hurmatga tayanadi. Hozirgi kunda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda ma'naviy ehtiyoj sezilayotgan bir paytda, Konfutsiyning «farzandlik burchi» haqidagi qarashlarini pedagogik jarayonga tatbiq etish:

- jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlashga;
- avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlashga;
- yoshlarda ustozga nisbatan yuksak ehtiromni shakllantirishga yordam beradi.

Konfutsiy: «*Har bir kishiga uning qobiliyatiga qarab ta'lim berish kerak*», - degan g'oyani ilgari surgan. Bu zamonaviy pedagogikadagi «differensial yondashuv»ning ilk ko'rinishidir. Maqolada ushbu klassik yondashuvni tahlil qilish zamonaviy o'qituvchilar uchun metodik manba bo'lib xizmat qiladi. Konfutsiyning insonparvarlik konsepsiyasini o'rganish – bu shunchaki tarixni yoritish emas, balki bugungi kun pedagogikasidagi «inson kapitali»ni sifatli shakllantirish uchun ma'naviy filtr vazifasini o'taydi.

Nazariy asos: Konfutsiy ta'limotini o'rganish bo'yicha jahon miqyosida, jumladan, xorijiy davlatlar, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari va O'zbekistonda ham salmoqli ilmiy maktablar shakllangan. Quyida ushbu ta'limotni tadqiq etgan eng mashhur xorijiy va MDH olimlar ilmiy merosi bilan tanishib chiqamiz.

Jahon sharqshunosligida Konfutsiyning ilmiy-falsafiy merosi juda chuqur o'rganilgan bo'lib, xorijiy olimlardan Gerbert Fingarett [3], Henry Rosemont [2], Tu Veymin [12], Kayzuka Shigeki [20], Manly Palmer Hall [37], Rojer T. Eym [1], Reyni Li Dian [9], Yu Dan [38], Joy A. Palmer [33], Sharlin Tan [11], Glessner Creel [18], Ving-sit Chan [40], Donald Munro [39] va Bryan Van Norden [13]larni keltirib o'tish mumkin. Ving-sit Chan Xitoy falsafasi bo'yicha manbalarni tizimlashtirgan va tarjima qilgan nufuzli olim, Donald Munro Konfutsiy ta'limotidagi «*inson tabiati*» va «*inson tushunchasi*»ni tahlil qilgan, Brayan Van Norden esa Konfutsiy ta'limotini zamonaviy auditoriyaga tushunarli tilda yetkazishga harakat qilayotgan hozirgi davr faylasufi hisoblanadi.

Rossiya va MDH mamlakatlarida sinologiya (xitoyshunoslik) an'analari chuqur ildizga ega. Bu yerda Konfutsiy ta'limoti asosan tarixiy, siyosiy va madaniy hodisa sifatida A.L.Leontyev [36], K.M.Karyagin [21], K.G.Krimskiy [27], L.S.Perelomov [34], V.V.Malyavin [30], A.V.Markov [24], A.Y.Blajkina [28], A.Martinov, I.Zograf [22], I.I.Semenenko [35], L.S.Vasilev [17], A.A.Guseinov [19], P.S.Popov [16], S.Oldenburg [32], E.Yamburg, I.Kanayev [25], A.I.Kobzev [23], V.P.Abramenko [14], Lanju Vang [29], A.A.Maslov [31] va boshqalar tomonidan o'rganilgan hamda qator tarjimalar amalga oshirilgan.

Yurtimizda Konfutsiy hikmatlari, hayoti va ijodi, konfutsiylik ta'limoti borasida Viktor Alimasov [15], Komiljon va Oybek Jo'rayevlar [7], Ilhom Qosimov [8], Muxtor Xudoyqulov [6], Muzaffar Ahmat [5], M.Maxmutxodjayev, N.Ismatullayeva [26] hamda Dilsora Mirzaaxmedova [10]larning risola va tarjimalari ham mavjud bo'lib, bu tarjimalar bizga Konfutsiy shaxsi va ta'limotini o'rganishga xizmat qiladi.

Metodologiya: Ushbu tadqiqotda Konfutsiyning insonparvarlik qarashlari va ularning pedagogik mohiyatini ochib berish uchun quyidagi ilmiy metodlar va yondashuvlar majmuasidan foydalanildi:

1. Germenevtik tahlil va matn interpretatsiyasida tadqiqotning asosiy metodologik asosi sifatida germenevtika (matnlarni talqin qilish san'ati) tanlandi. Bunda Konfutsiyning «Lun Yuy» («Suhbatlar va o'gitlar») asaridagi dialoglar, metaforalar va hikmatli so'zlar pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Xususan, Ustozning shogirdlari (Fan Chi, Yan Yuan, Zigong va boshqalar) bilan olib borgan muloqotlari zamonaviy ta'limiy muloqot va axloqiy tarbiya kontekstida interpretatsiya qilindi.

2. Metaforik va qiyosiy tahlil orqali Konfutsiy tomonidan qo'llanilgan tabiat hodisalari (suv, tog', olov, eshik) orqali berilgan metaforik ta'riflar tahlil qilinib, ularning ontologik va pedagogik ma'nolari ochib berildi. Masalan, «suv» va «tog'» metaforalari orqali donolik (zhi) va insonparvarlik (ren) tushunchalarining dinamik va statik jihatlarini qiyosiy o'rganildi.

3. Tizimli-funksional yondashuv. Insonparvarlik (ren) konsepsiyasi ma'lum bir tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bunda uning: amaliy shartlari: (Sezgilar va harakatlarni nazorat qilish: ko'rmaslik, eshitmaslik, gapirmaslik, qilmaslik); psixologik asoslar: (Sabot, qat'iyat, odmilik va kamsuqumlik) hamda ijtimoiy funksiyalar: (Empatiya, o'zaro manfaatdorlik va adolat) o'rtasidagi funksional aloqalar jadval ko'rinishida tizimlashtirildi.

4. Taksonomik (tasniflash) metodi. Tadqiqotda insonparvarlikka eltuvchi xislatlar va uning amalga oshirish shartlari ma'lum bir tartibda tasniflandi (Maqoladagi 1, 2 va 3-jadvallarga qarang). Bu usul murakkab falsafiy tushunchalarni pedagogik amaliyot uchun tushunarli modellarga aylantirish imkonini berdi.

Tadqiqotning empirik bazasi sifatida Konfutsiyning «Suhbat va mulohazalar» asarining o'zbek tilidagi tarjimasini (T.: «Yangi asr avlodi», 2014) xizmat qildi. Tadqiqot davomida asardagi 25 ta asosiy fragment tahlilga tortildi. Qo'llanilgan metodlar majmuasi Konfutsiyning insonparvarlik konsepsiyasi shunchaki tarixiy-falsafiy meros emas, balki shaxsning axloqiy o'sishini ta'minlovchi izchil pedagogik texnologiya ekanligini isbotlashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar: «Lun Yuy» asarida Konfutsiy ta'limotining ikki markaziy tushunchasi insonparvarlik (ren) va donolik (zhi) aksariyat hollarda yonma-yon ta'riflanadi. Ustozning qarashlarida «*insonparvarlik – bu insonlarni sevish, demak. Bilish (donolik) – bu kishilarni farqlay bilish, demakdir*» [26; 117 b.]. Insonparvarlik insonlarni sevishdan iborat bo'lsa, donolik esa bu sevgini amaliyotga tatbiq etish, ya'ni jamiyatni to'g'ri boshqarish va axloqiy muhitni yaratish uchun insonlarni farqlay bilishdan iboratdir. Quyida Konfutsiyning insonparvarlik borasida shogirdlariga bergan nasihati va ular bilan qilgan suhbatlari tahlili keltiriladi.

Konfutsiy donolik (zhi) va insonparvarlik (ren) fazilatlarining inson hayotidagi aks etishini, ularning farqli xususiyatlarini va olib keladigan natijalarini metaforik tarzda tushuntiradi. Ustoz Konfutsiy: «*Dono kishi suvni sevadi. Insonparvar kishi tog'larni sevadi. Dono kishi harakatda bo'ladi. Insonparvar kishi osudalikda yashaydi. Dono kishining hayoti quvonchli kechadi. Insonparvar kishi esa uzoq umr ko'radi*» [26; 61 b.], – deydi. Konfutsiy ushbu ikki asosiy fazilatni qiyoslar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi (1-jadvalga qarang):

1-jadval
Donolik va insonparvarlikning farqlari

Donolik	Insonparvarlik
Dono kishi suvni sevadi	Insonparvar kishi tog'larni sevadi
Suv doimiy harakatda, o'zgaruvchan va adaptivdir. Bu donolikning oqilona fikrlash, vaziyatga moslashish va doimiy o'zgarishlarga tayyor bo'lish xususiyatini aks ettiradi	Tog'lar esa mustahkam, barqaror va sokin. Bu insonparvarlikning barqarorlik, mehr-oqibat va o'zgarimas axloqiy tamoyillarga sodiqlik sifatlarini ifodalaydi.
Dono kishi harakatda bo'ladi	Insonparvar kishi osudalikda yashaydi
Dono kishi dunyo jarayonlarida faol ishtirok etadi, muammolarni yechishga intiladi va doimiy izlanishda bo'ladi.	Insonparvar kishi esa ichki osoyishtalik va xotirjamlikka ega bo'lib, tashqi shovqin va o'zgarishlardan unchalik ta'sirlanmaydi. Uning ruhiy holati barqarordir.
Dono kishining hayoti quvonchli kechadi	Insonparvar kishi esa uzoq umr ko'radi
Donolik insonni hayotning sir-asrorlarini tushunishga, muammolarni hal etishdan quvonch topishga va yangi bilimlardan lazzatlanishga undaydi.	Insonparvarlik esa insonning ichki tinchligini, boshqalar bilan uyg'un munosabatlarini ta'minlab, stress va salbiy hissiyotlardan himoya qiladi, bu esa uzoq umr ko'rishga yordam beradi.

Konfutsiyning bu metaforalari donolikni aql va harakat bilan, insonparvarlikni esa hissiyot, barqarorlik va ichki poklik bilan bog'laydi. Har ikkala fazilat ham insonning uzoq va sermazmun hayot kechirishi uchun muhim bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi.

«Lun Yuy» kitobida yana bir donolik va insonparvarlik borasida keltirilgan suhbatida Fan Chi donolik nima ekanligini so'raganida Ustoz Konfutsiy shunday javob beradi: «O'zni bag'ishlab insonlik burchini bajarish, ruh va jinlardan yiroqroq turib ularni ehtirom aylash donolik hisoblanadi» [26; 61 b.]. Mazkur javob donolikning ikki asosiy qirrasini – amaliy va ma'naviy jihatlarini alohida ta'kidlaydi. Donolik shunchaki bilim to'plash emas, balki bu bilimlarni hayotda qo'llash va axloqiy me'yorlarga rioya qilishdir. Donolik insonni mavhum va tushunarsiz narsalarga haddan tashqari berilib ketishdan saqlaydi, uni real hayotga va amaliy vazifalarga yo'naltiradi. Shu bilan birga, mavjud e'tiqodlarga nisbatan hurmatni saqlash ijtimoiy totuvlik uchun muhim deb biladi.

Fan Chi insonparvarlik nima ekanligini so'raganida, Ustoz shunday javob beradi: «Avval mashaqqat chekib, keyin muvaffaqiyatga erishish bu insonparvarlik demak» [26; 61 b.]. Bu javob insonparvarlikka erishishning muhim shartini ochib beradi. Insonparvarlik shunchaki his-tuyg'u emas, balki doimiy sa'y-harakat va o'z-o'zini tarbiyalash natijasidir. Insonparvarlik talab qiladigan qiyinchiliklarga (masalan, shaxsiy istaklardan voz kechish, adolatsizlikka qarshi turish, boshqalarga yordam berish uchun qurbonlik qilish) dosh berishni anglatadi. Bu yengil yo'l emas. Erishilgan «muvaffaqiyat» tashqi boylik yoki shuhrat emas, balki ma'naviy va axloqiy yutuqdir. Haqiqiy insonparvarlik osonlikcha kelmaydi, u doimiy kurash va o'z ustida ishlashni talab qiladi.

Konfutsiy Fan Chiga bergan javoblarida donolikni amaliy burch va ma'naviy hushyorlik bilan bog'laydi, insonparvarlikni esa fidokorona sa'y-harakat va o'z-o'zini takomillashtirish natijasi deb biladi. Bu ikki fazilat Konfutsiy ta'limoti insonning mukammallikka erishishi uchun muhim bo'lgan asosiy tamoyillardir.

«Lun Yuy»da Konfutsiyning shogirdlari tomonidan ham keltirilgan hikmatlar keng o'rin egallagan. Masalan tahlil qilayotganimiz insonparvarlik va donolik borasida Zisya: «Keng

ko'lamda bilim olib, o'zining maqsad-intilishlarini himoya qila olish, o'zi tashvishlangan savollar haqida ko'p so'rab va bular ustida mulohaza yuritish, insonparvarlik mana shunda o'z aksini topgan» [26; 178 b.], – deydi. Zisyaning ushbu fikrlari Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik (ren) fazilatiga erishishning intellektual va tafakkuriy jihatlarini ifodalaydi. U bilim, o'z-o'zini anglash va mulohazakorlikning insonparvarlik bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Zisyaning ta'kidlashicha, bilim olish, maqsadlarni himoya qilish, savol berish va mulohaza yuritish kabi to'rt jarayon insonparvarlik tamoyilining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, insonparvarlik shunchaki his-tuyg'u emas, balki ongli ravishda, bilim va mulohaza yuritish orqali shakllanadigan va namoyon bo'ladigan fazilatdir. Zisya insonparvarlikni intellektual o'sish va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining cho'qqisi deb biladi. Bu har bir insonni doimiy ravishda bilim olishga, o'z prinsiplariga sodiq qolishga, qiziquvchan bo'lishga va chuqur mulohaza yuritishga chorlaydi, chunki aynan shu yo'l orqali inson chinakam insonparvarlikka erisha oladi.

«Insoniylik fazilatiga ega bo'lgan kishigina to'g'ri yo'ldan borib, insonlarni seva oladi, to'ppa to'g'ri yo'ldan borib, odamlarni yomon ko'ra oladi» [26; 39 b.] – bu Konfutsiyning chuqur ta'limiy fikrlaridan biri. Ushbu hikmatda Konfutsiyning aytishicha, faqatgina insonparvarlik fazilatiga ega bo'lgan kishigina insonlarni chinakamiga seva oladi ham, chinakamiga yomon ko'ra oladi ham. Bu dastlab mantiqqa zid yoki aqlga sig'maydigandek tuyuladigan, biroq chuqurroq mushohada qilinganda ma'noli mazmunga ega bo'lib chiqadigan paradoksal fikrning mohiyati shundaki, insonparvar shaxs hech qachon boshqalarga nisbatan befarq bo'lmaydi. Uning his-tuyg'ulari, munosabatlari yuzaki emas, balki chuqur va samimiy bo'ladi.

To'g'ri yo'ldan borib, odamlarni seva oladigan insonparvar kishi o'zining ezgu umidlari, adolat va mehr-oqibatga asoslangan yo'ldan borib, insonlarning ijobiy tomonlarini ko'ra oladi, ularga yordam berishga intiladi va ularni qadrlaydi. Bu sevgi shaxsiy manfaatlardan ustun turuvchi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan sof sevgidir.

To'g'ri yo'ldan borib, odamlarni yomon ko'ra oladigan insonparvar kishi (bu yerda «yomon ko'rish» befarqlik yoki nafrat ma'nosida emas, balki adolat va to'g'rilik nuqtai nazaridan yomon ko'rishdir) yomonlikka, adolatsizlikka, ziyon yetkazishga intiluvchi xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz bo'ladi. U bu kabi harakatlarni yoki ularni sodir etgan shaxslarni (ularning noto'g'ri amallarini) o'zining ma'naviy prinsiplariga zid bo'lgani uchun qoralaydi. Bu yerda «yomon ko'rish» so'zi ko'proq qabul qila olmaslik, murosasiz bo'lish, rozi bo'lmaslik ma'nolarini anglatadi.

Konfutsiyning bu so'zlari insonparvarlik faqatgina «yaxshilik qilish» degani emas, balki to'g'rilik va adolat mezonlari asosida baho berish qobiliyatini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Chinakam insonparvar kishi nafaqat sevishga, balki noto'g'ri va adolatsizliklarni rad etishga ham qodir bo'ladi. Bu uning ma'naviy mustahkamligi va qat'iyatlilikidan dalolat beradi.

Konfutsiy: *«Insoniy munosabatlar hukmron joydagina istiqomat qilish yaxshi. Yashamoq uchun maskan tanlanar ekan, insoniy munosabatlar bor yerni tanlamaslik aqldan bo'larmikan?» [26; 39 b.], – deydi. Konfutsiyning ushbu hikmati ijtimoiy muhitning inson kamolotidagi ahamiyatini yoritadi hamda har bir shaxsni jismoniy, ma'naviy va axloqiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhitni ongli ravishda tanlashga undaydi. Bu ta'limotga ko'ra, haqiqiy baxt va to'laqonli hayot moddiy farovonlikda emas, balki o'z atrofida insonparvarlik, halollik va do'stlik muhitini yaratish yoki unda yashashdadir.*

Ustozning: *«Kishi insonsevar qalb sohibi bo'lmasa, u axloq qoidalarini nazarga ilarmidi? Kishida insonsevar qalb bo'lmasa, u musiqani anglarmidi?» [26; 31 b.], – degan hikmatli so'zi insonparvarlik (insonsevarlik) fazilatining axloq va san'atni anglashdagi asosiy*

rolini ta'kidlaydi. Konfutsiyni fikricha, haqiqiy axloq qoidalari faqatgina tashqi majburiyat yoki samarasiz qoidalar to'plami emas. Ular insonning ichki dunyosidan, ya'ni uning insonparvarligidan kelib chiqadi. Agar insonda boshqalarga nisbatan mehr, hurmat va hamdardlik bo'lmasa, u axloqiy me'yorlarga shunchaki rioya qilishi mumkin, ammo ularning asl ma'nosini anglamaydi va ularga chinakam amal qilmaydi. Axloq faqatgina qoidalarga rioya qilishdan iborat emas, balki boshqalarning manfaatlari va his-tuyg'ularini inobatga olishni ham talab qiladi, bu esa insonsevarliksiz mumkin emas.

Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik san'atni, ayniqsa musiqani anglash va baholash jarayonida muhim mezon sifatida talqin etiladi. Musiqa faqatgina tovushlar yig'indisi emas, balki chuqur his-tuyg'ular, g'oyalar va insoniy tajribalarni ifoda etuvchi san'at turidir. Konfutsiy nazdida musiqani chinakam anglash, uning ruhini his qilish uchun insonda o'sha his-tuyg'ularni qabul qilishga qodir insonsevar qalb bo'lishi kerak. Insonparvar bo'lmagan kishi musiqani shunchaki shovqin sifatida qabul qilishi mumkin, uning ichidagi go'zallikni, qayg'usini, shodligini yoki ma'naviy chuqurligini his qila olmaydi. Musiqa inson ruhiga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sirni qabul qilish uchun ruhning o'zi ham ochiq va sezgir bo'lishi lozim.

Konfutsiy insonsevarlikni inson hayotining eng muhim va asosiy fazilati deb bilgan. Uning fikricha, bu fazilat insonni nafaqat to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishga undaydi, balki san'atni va hayotning boshqa nozik qirralarini teran anglashga ham imkon beradi. Insonsevarliksiz inson shunchaki, quruq qoidalarga amal qiluvchi mexanik mavjudotga aylanib, hayotning haqiqiy go'zalligi va ma'nosini his qila olmaydi.

Yana bir suhbatda Konfutsiy: «*Kimki chin dildan insonparvarlikka intilsa, u hech qachon yomon ishlar qilmaydi*» [26; 40 b.], – deydi. Konfutsiyni bu iborasi insonparvarlikni barcha ezgu fazilatlarining asosi deb bilishini ko'rsatadi. U shaxsni yomonlikdan himoya qiluvchi ichki qalqon vazifasini o'taydi. Kimki qalban insonparvar bo'lsa, u o'z-o'zidan to'g'ri yo'ldan boradi va atrofdagilariga faqatgina yaxshilik ulashadi. Bu nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat totuvligi va barqarorligi garovi hamdir. «*Insonparvarlik fazilatiga ega bo'lmagan kishi uzoq vaqt na qashshoqlikda va na farovonlikda yashay oladi. Insonparvar kishiga insonparvarlik huzur bag'ishlaydi. Aqli odamga insonparvarlik foyda olib keladi*» [26; 39 b.], – degan ushbu so'zlari esa insonparvarlikning nafaqat axloqiy fazilat, balki hayotning barcha jabhalarida muvaffaqiyat va ma'naviy qoniqishning asosi ekanligini ta'kidlaydi. U insonparvarlikning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi muhim rolini ochib beradi.

Konfutsiy insonparvarlikni inson hayotining barcha bosqichlarida (qiyinchiliklarda ham, farovonlikda ham) muvozanatni saqlashning kaliti deb bilgan. Bu fazilat insonga nafaqat axloqiy yuksalishni, balki ichki tinchlikni va amaliy muvaffaqiyatni ham ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Konfutsiy insonparvarlik (ren) va burch (yi) tushunchalarining inson hayotidagi o'rni, ularga erishishdagi qiyinchiliklar va shu bilan birga, ularning har bir inson uchun erishilishi mumkin bo'lgan fazilatlar ekanligini ta'kidlaydi. Konfutsiy insonparvarlik va burch mohiyatini «*Kim xonadon tashqarisiga eshikdan o'tmasdan chiqa oladi?*» [26; 60 b.] – degan ritorik savol bilan boshlaydi. Bu savol shuni anglatadiki, kundalik hayotimizda eshikdan o'tish qanchalik oddiy va tabiiy bo'lsa, insonparvarlik va burchga rioya qilish ham xuddi shunday tabiiy va zaruriy bo'lishi kerak. Eshikdan o'tmasdan tashqariga chiqishning iloji bo'lmagani kabi insonparvarlik va burchsiz to'laqonli va mazmunli hayot kechirish ham mumkin emas. Keyingi savol: «*Nima uchun hech kim o'tish lozim bo'lgan bu insonparvarlik va burch yo'ldan yurmaydi?*» [26; 60 b.]. Bu savol Konfutsiyni insonlarning bu fazilatlariga beparvoligidan hayratda ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, insonparvarlik va burch insonning o'ziga xosligi va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi asosiy mezonlar bo'lishi kerak. Ammo ko'pchilik bu yo'ldan yurmashdan, osonroq yoki shaxsiy manfaatlarga ko'proq xizmat qiladigan yo'llarni tanlaydi.

Konfutsiy insonparvarlikni erishib bo'lmaydigan oliy maqsad emas, balki ichki iroda va intilish orqali erishiladigan fazilat deb biladi. «*Axir insonparvarlik shunchalar olisdami? Insonparvar bo'lishni istasamgina, insonparvarlikka yetishishim mumkin bo'ladi*»[26; 71 b.], – bu so'zlar insonparvarlik har bir kishining o'zida mavjud bo'lgan ichki imkoniyat ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni insonparvarlik «olisda» emas, istak bu kalit.

Konfutsiy insonparvarlik fazilatiga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy shaxsiy sifatlarni ko'rsatib beradi. Uning fikricha, bu fazilat shunchaki tug'ma emas, balki ma'lum xislatlar orqali rivojlanadi: «*Sabotli, qat'iyatli, odmi, kamsuqum odam insonparvarlikka yaqindir*»[26; 127 b.]. Bu to'rtta xislat birgalikda insonparvar shaxsning asosini tashkil etadi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Insonparvarlikka yetaklovchi xislatlar

№	Xislatlar	Mohiyati
1.	Sabotli	Sabotli odam o'zining ezgu maqsadlaridan, jumladan, insonparvarlikdan voz kechmaydi.
2.	Qat'iyatli	Qat'iyatli odam to'g'ri deb bilgan yo'lidan chekinmaydi, hatto qiyinchiliklarga duch kelsa ham.
3.	Odmi	Kamtarinlik esa boshqalar bilan samimiy aloqalar o'rnatishga yordam beradi va insonparvarlikning muhim jihati bo'lgan hamdardlikka eshik ochadi.
4.	Kamsuqum	Kamsuqum odam o'z bilimi yoki mavqei bilan gerdaymaydi, boshqalarni tinglashga va ulardan o'rganishga tayyor bo'ladi.

Konfutsiyning bu so'zlari insonparvarlikning shunchaki hissiy holat emas, balki ichki intizom, qat'iy xarakter va boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabat orqali erishiladigan yuksak fazilat ekanligini ta'kidlaydi. Yuqorida sanab o'tilgan xislatlar insonni insonparvarlikka olib boruvchi yo'ldagi muhim qadamlar bo'lib xizmat qiladi.

Konfutsiy insonparvarlik fazilatining eng yuksak cho'qqisini va bu fazilatga chin dildan intiladigan shaxsning fidokorligini ta'riflab: «*Aniq bir maqsadga intiluvchi insonparvar kishilar o'z jonlarini saqlab qolish uchungina insonparvarlikka zarar yetkazmaydilar, balki o'z hayotini qurbon qilib insonparvarlikka ko'mak beradilar*» [26; 146 b.], – deydi. Bu yerda Konfutsiy insonparvarlikni oddiygina axloqiy qoida emas, balki hayotning maqsadi va eng oliy qadriyat sifatida ko'rsatadi. Uning bu so'zlari insonparvarlikning shunchaki nazariy tushuncha emas, balki insonning eng og'ir damlarda ham amal qilishi lozim bo'lgan hayotiy prinsip ekanligini ta'kidlaydi. Chinakam insonparvar kishi uchun bu fazilat nafaqat yashash tarzini, balki hayotning o'zini ham belgilab beruvchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik – har qanday munosabatdan ustun. Ustoz: «*Insonparvarlikni amalga oshirish kerak bo'lgan vaziyat yuzaga kelganda ustozingga ham yo'l berma!*» [26; 152 b.], – deydi. Konfutsiyning bu so'zlari insonparvarlik (ren) tamoyilining mutlaq ustuvorligini va uning har qanday shaxsiy bog'liqlikdan, hatto eng hurmatli munosabatlardan ham yuqori turishini ta'kidlaydi. Bu ibora Konfutsiy ta'limotining asosiy g'oyalaridan birini, ya'ni axloqiy burch va oliy fazilatning shaxsiy hissiyotlardan ustunligini ifodalaydi. Bu jumla, odatda, Konfutsiy ta'limotida ustoz-shogird munosabatlariga juda katta hurmat bilan qaralishini hisobga olsak, juda kuchli va noodatiy tuyuladi. Ammo, bu Konfutsiyning insonparvarlikka bo'lgan mutlaq sadoqatini ko'rsatadi.

Konfutsiylik ta'limotida ustozga hurmat – bu eng muhim axloqiy mezonlardan biri. Biroq insonparvarlikni amalga oshirish zarurati tug'ilganda, hatto ustozga bo'lgan hurmat ham ikkinchi o'ringa tushadi. Bu shuni anglatadiki, agar ustozning harakati yoki qarori insonparvarlik tamoyillariga zid kelsa, shogird to'g'ri yo'lni tanlashda ikkilanmasligi kerak.

Bu nafaqat shaxsiy ustoz-shogird munosabatlariga, balki har qanday shaxsiy bog'liqlikka (oila, do'stlik, qarindoshlik) nisbatan ham qo'llaniladi. Agar qandaydir vaziyatda insonparvarlik talab qilinadigan bo'lsa (masalan, adolatsizlikka qarshi chiqish, yordamga muhtojga ko'maklashish), shaxsiy bog'liqliklar bu yo'lda to'siq bo'lmasligi kerak. Insonparvarlik talab qilganda, shaxs hech ikkilanmay, to'g'ri va adolatli yo'lni tanlashi lozim.

Ushbu ibora Konfutsiy ta'limotining markaziy g'oyalaridan birini, ya'ni axloqiy burchning shaxsiy hissiyotlardan ustunligini va insonparvarlikning mutlaq ustuvorligini yorqin ifodalaydi. Bu insonni o'z e'tiqodlariga qat'iy sodiq bo'lishga va har qanday vaziyatda ezgulik va adolat yo'lini tanlashga undaydi.

Zigongning: «*Biror kimsa xalqqa yaxshilik qilsa va kishilarga moddiy jihatdan yordam ko'rsatsa, bu qanday odam bo'ladi? Insonparvar deb hisoblash mumkinmi?*» degan savoliga Konfutsiyning javobi shunday bo'ladi: «*Bunday insonni insonparvar deyish kam, uni avliyo-donishmand deb bilish kerak! Yao va Shun buni bajara olmaganlar deb qo'rqaman*» [26; 163 b.]. Bu yerda Konfutsiy xayr-saxovat va moddiy yordamni juda yuqori baholaydi, ammo bu darajani insonparvarlikdan ham yuqori bo'lgan avliyo-donishmandlik deb ataydi. Yao va Shun qadimgi Xitoyning komil hukmdorlari bo'lganligi sababli, ularning hatto bu darajaga to'liq erisha olmaganliklari haqidagi ibora, bu ishning naqadar buyuk va kamyob ekanligini ko'rsatadi. Konfutsiy uchun insonparvarlik amaliyotining bu darajasi juda ulug' va hatto insonparvarlikning o'zidan ham oshib tushadigan oliy maqomdir.

Konfutsiy Zigongga insonparvarlikning asl mohiyatini tushuntirib: «*Insonparvar kishi oyoqda mustahkam turishni istasa, o'zgalarning ham mahkam turishlariga yordam berishi kerak*» [26; 64 b.], – deydi. Bu insonparvarlikning o'zaro manfaatdorlik va birgalikdagi yuksalish tamoyiliga asoslanganligini bildiradi. Insonparvar kishi faqat o'zining muvaffaqiyatini o'ylamaydi, balki boshqalarning ham rivojlanishiga ko'maklashadi. O'zining barqarorligi boshqalarning barqarorligiga bog'liq ekanligini tushunadi.

«*O'zi erishishni istagan narsasiga o'zgalarning ham erishishiga ko'mak berishi kerak*» [26; 64 b.] – deganda esa insonparvarlikning empatiya (hamdardlik) va adolatlilik tamoyilini ifodalaydi. Insonparvar kishi o'zining orzu-umidlarini boshqalarga ham tatbiq etadi, ularning maqsadlariga erishishlariga yordam beradi. Bu o'zining xohish-istaklarini boshqalar orqali amalga oshirishga intilish emas, balki boshqalarning ham o'z maqsadlariga erishishlariga yorqin nur sochishdir.

Va so'ngida «*Barcha masalalarda boshqalarning o'rniga o'zini qo'yib ko'ra olsa, buni insonparvarlikni amalga oshirishning usuli deyish mumkin*» [26; 64 b.], – deydi. Bu Konfutsiy ta'limotidagi «*o'zaro munosabat*» prinsipidir. Boshqalarning o'rniga o'zini qo'yib ko'rish – bu chuqur empatiya, ularning his-tuyg'ularini, ehtiyojlarini va qiyinchiliklarini tushunish demakdir. Aynan shu qobiliyat insonparvarlikni amaliyotga tatbiq etishning asosiy usuli hisoblanadi.

Ustoz Konfutsiy va shogirdi orasidagi yana bir suhbatda insonparvarlik (ren) fazilatining chuqur nazariyasi va amaliy shartlarini, ayniqsa, o'z-o'zini nazorat qilish orqali unga erishishni aniq bayon etadi. Quyida ushbu suhbatning tahlilini keltiramiz.

Yan Yuan ustozidan insonparvarlik haqida so'raganida, Konfutsiy shunday javob beradi: «*O'zingni tuta bilsang, aytgan so'zing va qilgan amallaring axloq qoidalariga muvofiq kelsa, bu insonparvarlik bo'ladi. Bir kun kelib so'z va amalingni axloq qoidalariga muvofiqlashtira olsang, dunyo ahli seni insonparvar deb madh etadi*» [26; 109 b.]. Bu javob Konfutsiyning insonparvarlikka erishish uchun shaxsiy intizom va o'z-o'zini nazorat qilishning asosiy rolini ta'kidlaydi.

Yan Yuan insonparvarlik fazilatini amalga oshirishning aniq shartlarini so'raganida Ustoz Konfutsiy quyidagi to'rtta qoidani sanab o'tadi: «*Axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan*

narsalarga qarama; axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan gaplarni eshitma; axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan so'zlarni gapirma; axloq qoidalariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilma»[26; 109 b.].

Bu qoidalar insonparvarlikka erishish uchun sezgilar va harakatlarni nazorat qilishning ahamiyatini ko'rsatadi. Ular *«yomonlikni ko'rma, yomonlikni eshitma, yomonlikni gapirma, yomonlikni qilma»* ta'limotiga o'xshaydi va insonni ichki va tashqi uyg'unlikka chorlaydi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Insonparvarlikni amalga oshirishning shartlari

№	Shartlar	Mazmuni
1	Ko'rishni nazorat qilish	Noto'g'ri yoki axloqsiz narsalarni ko'rishdan tiyilish, chunki ular insonning fikriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin
2	Eshitishni nazorat qilish	G'iybat, bo'hton yoki axloqsiz gaplarni eshitishdan tiyilish, chunki ular insonning ongini buzishi mumkin
3	Gapirishni nazorat qilish	Yolg'on, qo'pol yoki axloqsiz so'zlarni gapirishdan tiyilish, chunki so'zlar jamiyatga va insonning o'ziga ta'sir qiladi
4	Harakatlarni nazorat qilish	Barcha amallarni axloqiy me'yorlarga muvofiqlashtirish, ya'ni har qanday axloqsiz yoki zararli ishdan tiyilish

Suhbatning so'ngida Yan Yuanning *«Zehnim o'tkir bo'lmasa-da, sizning aytgan so'zlaringizga amal qilaman»* [26; 109 b.] degan javobi bu qoidalarining mukammal ekanligini va har qanday intiluvchi shaxs uchun amal qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu Konfutsiyning insonparvarlik faqatgina iste'dodlilar uchun emas, balki iroda egalari uchun ham erishilishi mumkin bo'lgan fazilat ekanligi haqidagi ishonchining tasdig'idir.

Ushbu suhbat Konfutsiy ta'limotining markaziy o'zagini insonparvarlikka erishish yo'li o'z-o'zini nazorat qilish, ichki intizom va doimiy axloqiy harakatlar orqali amalga oshirishni yorqin namoyish etadi. Bu har bir shaxsning o'z ustida ishlashiga va jamiyatda ezgulikni yoyishiga undaydi.

Konfutsiyning insonparvarlik (ren) fazilatiga erishishning naqadar qiyin ekanligi va kamdan kam odam bunga chin dildan intilishini chuqur tahlil qiladi [26; 41 b.]. Ustoz aksariyat odamlarning insonparvarlikni chin dildan sevgandek ko'rsatsa-da, aslida bunday emasligini ta'kidlaydi. Ko'pchilik uchun bu fazilat shunchaki tashqi ko'rsatish vositasi yoki ijtimoiy me'yorlarga amal qilish majburiyati, lekin chinakam ichki ehtiyoj emas. U insonparvarlikka amal qilishning yana bir sababini ko'rsatadi: bu shunchaki o'zini yomon ta'sirlardan himoya qilish usuli. Ya'ni, ba'zi odamlar yomonlikdan nafratlanishadi va shuning uchun yaxshilikka intilishadi, lekin bu ularning qalbida yotgan insonparvarlikka bo'lgan chin muhabbat emas, balki oddiy o'z-o'zini himoya qilish mexanizmi.

Konfutsiy insonparvarlikka erishish uchun bor kuch-quvvatni sarflash kerakligini ta'kidlaydi va bu ishga kuchlari yetmaydigan odamni uchratmaganini aytadi. Ya'ni, bu yo'lda eng katta to'siq kuch-quvvat yetishmovchiligi emas, balki iroda va chinakam istakning yo'qligidir. Uning o'ziga xos tarzda *«men bunday kishilarni uchratmaganman»* deb aytish esa bu fazilatga erishish juda kam uchraydigan hodisa ekanligini anglatadi.

Konfutsiy so'zlarida insonparvarlik (ren) fazilatining jamiyat va shaxs uchun naqadar muhim va xavfsiz [26; 152 b.] ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikrlaridan insonparvarlikning suv va olovdan afzalligi, insonparvarlik xavfsizligi kabi tushunchalarni anglash mumkin. U insonparvarlikni suv va olov kabi hayotiy ehtiyojlarga qiyoslaydi, ammo uni undan ham ustun qo'yadi. Suv va olov hayot uchun zarur bo'lgan kuchlar bo'lsa-da, ulardan noto'g'ri foydalanilsa, halokatga olib kelishi mumkin. Konfutsiyning fikricha, insonparvarlikda bunday xavf yo'q.

Konfutsiyning aytishicha, suv toshqinida yoki olovda yonganlar vafot etishi mumkin, lekin insonparvarlik, ya'ni boshqalarga yaxshilik qilish, shafqatli bo'lish va odil ish tutish hech kimni halokatga olib bormaydi. Aksincha, bu fazilat insonni yuksaltiradi va unga haqiqiy ma'nodagi tinchlik va baxt bag'ishlaydi.

Konfutsiy bu hikmat bilan insonparvarlik nafaqat ma'naviy ustuvorlik ekanligini, balki u insoniyat uchun mutlaqo xavfsiz va eng foydali fazilat ekanligini ko'rsatmoqchi. Moddiy ehtiyojlar bizni xavf-xatarga solishi mumkin, lekin axloqiy ehtiyoj (insonparvarlik) faqatgina yaxshilik keltiradi.

Xulosa: Konfutsiyning insonparvarlik (Ren) konsepsiyasi va uning pedagogik mohiyatini tahlil qilish natijasida quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarga kelindi:

Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik shunchaki mavhum tushuncha emas, balki ta'limning ham maqsadi, ham vositasi hisoblanadi. Ustoz ta'kidlaganidek, insonparvarlikka intilish kishini yomon amallardan saqlovchi ichki ma'naviy qalqon bo'lib, u bilim olish jarayonini axloqiy o'zan bilan birlashtiradi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan donolik (*zhi*) va insonparvarlik (*ren*) qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, haqiqiy komillikka faqat aql va axloq uyg'unligidagina erishish mumkin. Donolik insonni harakatga va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga o'rgatsa, insonparvarlik unga ma'naviy barqarorlik va hayotiy mazmun baxsh etadi.

Konfutsiyning shogirdlari (Yan Yuan, Fan Chi, Zigong) bilan olib borgan muloqotlari tahlili u har bir shaxsning intellektual salohiyati va fe'l-atvoriga qarab yondashganini isbotlaydi. Bu esa bugungi zamonaviy pedagogikaning eng ustuvor tamoyillaridan biri bo'lgan differensial ta'limning ilk tarixiy ko'rinishi bo'lib, o'qituvchidan yuksak metodik mahorat talab etadi. Maqolada keltirilgan «ko'rish, eshitish, gapirish va harakat qilishda axloq qoidalariga rioya etish» tizimi shaxsning o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmini shakllantirishda muhim pedagogik vositadir. Bu qoidalar bugungi kunda yoshlarni axborot xurujlari va ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda o'ziga xos «*ma'naviy filtr*» vazifasini o'tay oladi. Konfutsiyning «*o'zi erishishni istagan narsaga o'zgalarning ham erishishiga ko'maklashish*» haqidagi oltin qoidasi zamonaviy ta'limdagi kooperativ (hamkorlikdagi) ta'lim va ijtimoiy empatiya tushunchalari bilan hamohangdir.

Umumiy xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Sharq pedagogikasi rivojida Konfutsiyning insonparvarlik g'oyalari nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kun pedagogikasida shaxs kapitalini ma'naviy boyitish, ustoz-shogird munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish va ta'lim oluvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun zaruriy metodologik manbadir. Konfutsiy pedagogikasi – bu qalb va ongni baravar tarbiyalash san'atidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ames, Roger T. Confucian Role Ethics: A Vocabulary. – 2011. Honolulu: University of Hawaii Press.
2. Ames, Roger T. Rosemont, Henry Jr. The analects of Confucius: a philosophical translation. by: Confucius. – 1999. New York: Ballantine Books. – 356 P.
3. Herbert Fingarette. Confucius: The Secular as Sacred (Originally published: New York: Harper & Row, 1972) – 1998. Prospect Heights, Ill.: Waveland Press. – 100 P.
4. Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna. Konfutsiyning ta'limiy-tarbiyaviy merosi: nazariya va amaliyot [Matn]: MONOGRAFIYA – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2025. – 220 b.
5. Karyagin K.M. Konfutsiy. – T.: «Fan» nashriyoti, 2019. – 112 b.
6. Konfutsiy. Gapni gapir uqqanga. – T.: G'afur G'ulom, 2008. – 48 b.

7. Konfutsiy. Hikmatlar. – T.: G‘afur G‘ulom, 2022. – 192 b.
8. Konfutsiy. Muhokama va bayon. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 108 b.
9. Rainey, Lee Dian. Confucius & Confucianism: The essentials. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 436 pp.
10. Syu Fancheng. Konfutsiylik. – T.: Akademnashr, 2021. – 272 b.
11. Tan, C. Teacher-directed and learner-engaged: Exploring a Confucian conception of education. *Ethics and Education*, - 2015. 10(3), p. 302–312.
12. Tu, Wei-ming, and Mary Evelyn Tucker, eds. *Confucian Spirituality*. 2 vols. New York: The Crossroad Publishing Company, 2003-04.
13. Van Norden, Bryan W. *Confucius and the Analects: New Essays*. – 2002. Oxford; New York: Oxford University Press. – 360 P.; <https://www.bryanvannorden.com/>
14. Абраменко В.П. «Чжун юн» («Следование середине»). – М.: ИДН РАО, 2017. – 100 с.
15. Алимасов В. Конфуцийлик ва шарқ давлатчилиги: (Жамият ва давлатни бошқаришнинг фалсафий-ҳуқуқий масалалари). – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2006. – 56 б.
16. Беседы и суждения / Конфуций. – М.: Издательство АСТ, 2024. – 224 с.
17. Васильев Л.С. История религий Востока – М.: Университет, 2004. – 704 с.; Васильев Л.С. История религий. В 2-х томах. Том 2 - М.: Издательский дом «КДУ», 2016. – 432 с.
18. Глесснер Крил. Философская мысль Китая. От Конфуция до Мао Цзэдуна – М.: Центрполиграф, 2018. – 319 с.
19. Гусейнов А.А. Великие пророки и мыслители. Нравственные учения от Моисея до наших дней – М.: Вече, 2009. – 496 с.
20. Каидзука Сигэки. Конфуций. Первый учитель Поднебесной – М.: Центрполиграф, 2007. – 73 с.
21. Карягин К.М. Конфуций. Его жизнь и философская деятельность – С.Петербург: Общественная польза, 1891. – 80 с.; Karyagin K.M. Konfutsiy / tarjimon Muzaffar Ahmad. – T.: «Fan» nashriyoti, 2019. -112 b.
22. Классическое конфуцианство. Том 01. Конфуций. Лунь Юй – Переводы, статьи, комментарии А. Мартынова и И. Зограф. – СПб.: Нева; М.: Олма-Пресс, 2000. – 384 с.
23. Кобзев А.И. «Великое учение» и учения великих конфуцианцев. – М.: ИВ РАН, 2011. – 106 с.
24. Конфуций, Сократ. Я знаю, что ничего не знаю. Сост., предисл., коммент. В.В. Малявина, А.В. Маркова и др. – М.: АСТ, 2022. – 384 с.
25. Конфуций. Великое учение: с комментариями и объяснениями. – М.: Издательство АСТ, 2018. – 256 с.
26. Конфуций. Сухбат ва мулоҳазалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2014. – 272 б.
27. Крымский К.Г. Изложение сущности конфуцианского учения – 2-е издание. – Пекин: 1913. – 45 с.
28. Кун-цзы цзя юй (Речи школы Конфуция) – Пер. с кит., иссл. и прим. А.Ю. Блажкиной; отв. ред. В.М. Майоров; Ин-т Китая и соврем. Азии РАН. – М.: ИКСА РАН, 2022. – 320 с.
29. Ланьцзюй Ван. Транскультурные философские параллели: система образов романа Л.Н. Толстого «Война и мир» в свете идей Конфуция и Лао-цзы – Монография. – Иркутск: Иркутский государственный университет (ИГУ), 2018. – 211 с.
30. Малявин В.В. Конфуций – М.: Молодая гвардия, 1992. – 336 с.
31. Маслов А. Конфуций. Беседы с одиноким мудрецом – М.: Рипол Классик, 2020. –

320 с.

32. Ольденбург С. Конфуций: Жизнь, деятельность, мысли – М.: Центрполиграф, 2017. – 160 с.

33. Палмер Джой (ред.) Пятьдесят крупнейших мыслителей об образовании. От Конфуция до Дьюи – Пер. с англ. Н.А. Мироновой; под науч. ред. М.С. Добряковой; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2012. – 424 с.

34. Переломов Л.С. Конфуций и конфуцианство с древности по настоящее время (V в. до н. э. XXI в.) - М.: Стилсервис, 2009. – 704 с.

35. Семенов И.И. (сост.) Конфуций. Я верю в древность – М.: Республика, 1995. – 384 с.

36. Сы-Шу-Гэй. Том 1 (содержащий книгу Конфуция - Да Хио) – Перевод Леонтьева А. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1780. – 138 с.

37. Холл Мэнли. Двенадцать Учителей Человечества – М.: Сфера, 2008. – 272 с.

38. Юй Дань. Конфуций. От сердца к сердцу: Уроки Лунъюя – М.: АСТ: АСТ Москва, 2010. – 252 с.

39. <https://ii.umich.edu/lrccs/people/in-memoriam/donald-j--munro.html>

40. <https://terebess.hu/zen/mesterek/Wing-tsit-Chan.h>